

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RUZIKULOVA UMIDA XUSNIDDINOVNA

**QORAMOLLARNING VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINING
DIAGNOSTIKASI VA MAXSUS PROFILAKTIK TADBIRLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03 -Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD)
on veterinary sciences**

Ruzikulova Umida Xusniddinova

Qoramollarning virusli diareya kasalligining diagnostikasi va maxsus
profilaktik tadbirlarini takomillashtirish 3

Рузикулова Умида Хусниддиновна

Совершенствование диагностики и специфических мер профилактики
вирусной диареи крупного рогатого скота..... 23

Ruzikulova Umida Khusniddinova Enhancement of diagnostic methods
and specific preventive measures for bovine viral diarrhea in cattle..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**


**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RUZIKULOVA UMIDA XUSNIDDINOVNA

**QORAMOLLARNING VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINING
DIAGNOSTIKASI VA MAXSUS PROFILAKTIK TADBIRLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**



Samarqand – 2025

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/V119 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Sallimov Ilhom Xaltovich
veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Mengliyev G'ayrat Akramovich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi
L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya,
yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «6» yanvar soat «13⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 14350 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax: +998662347686.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» 12» dagi № 02» - raqamli reysr bayonnomasini)



A.B.Dilmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
vet.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
vet.f.f.d. (PhD)

Q.N.Norbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda qoramollar virusli diareya kasalligi dunyo chorvachilik xo'jaliklarida global miqyosida tarqalgan yirik shoxli hayvonlar populyatsiyasiga jiddiy ta'sir qiluvchi infeksiya kasalliklari qatoridan joy olgan. "Virusli diareya bilan qoramollarning barcha yoshida kasallanishi (10% dan 100% gacha), ularning nafas olish, oshqozon-ichak tizimi va reproduktiv a'zolarining zararlanishi, nobud bo'lishi (10% dan 90% gacha) tufayli mahsuldorlikning pasayishi, kasallikdan tuzalgan hayvonlarni kelgusida podani to'ldirishga yaroqsiz bo'lishi, shuningdek, davolash-profilaktika chora-tadbirlariga sarflanadigan xarajatlarning ko'payishidan chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi"¹. Shu sababli qoramollar virusli diareya kasalligini diagnostikasi, maxsus profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida qoramollar virusli diareya kasalligi dastlab 1945-1950 yillar AQSHda qayd etilgan, keyinchalik Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlaridan - Germaniya, Gollandiya, Angliya, Italiya kabi mamlakatlarda aniqlangan. Hozirgi kunda butun dunyo mintaqalarida keng tarqalgan qoramollarning virusli diareya kasalligi chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazish xavfini yuzaga keltirmoqda. Qoramollarda virusli diareya kasalligining tarqalishi, diagnostikasi, oldini olish va qarshi kurashish bo'yicha erishilgan ilmiy natijalarga qaramay, ushbu muammo chorvachiligi sanoat asosida rivojlangan ko'plab mamlakatlarda hanuzgacha o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Respublikamizning qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida virusli diareyaning kechishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari qator kasalliklar belgilariga o'xshash bo'lib, bu esa o'z navbatida, kasallikka tez va ishonchli diagnoz qo'yishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Qolaversa, ushbu patologiyani diagnostika qilish va oldini olish vositalarining yetishmasligi muammoni yanada murakkablashtiradi. Qoramollar virusli diareya kasalligiga o'z vaqtida tashxis qo'yish, maxsus profilaktika va qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini takomillashgan usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish veterinariya fani va amaliyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"²gi farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastumi

¹ Абдусатторов А., Амиров А.И. "Қорамолларнинг вирусли диарея касаллигининг эпизоотологик, клиник ва патологоанатомик хусусиятлари" ветеринар маслаҳати 22- Август 2018 1-6.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi² farmoni.

tasdiqlash to'g'risida"³, 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁴, qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qoramollar virusli diareya kasalligining tarqalishi, diagnostikasi, maxsus profilaktika va davolash chora-tadbirlari bo'yicha xorijiy olimlardan B.Adler, T.R.Amis, J.C.Baker, S.R.Bolin, P.D.Kirkland, M.R.Mc.Gowan, S.G.Mackintosh, S.Vilcek, D.J.Pton, B.Durkovic, A.Donosio, F.Inostroza, L.Strojny, G.Ibata, A.Moussa, A.Loitsch, S.Vega, V.Palfi, MDX olimlaridan М.И.Гулюкин, К.П.Юров, А.Г.Готов, В.А.Кочанов, Т.И.Глотова, Н.А.Донченко, С.М.Грибко, С.А.Жидков, А.И.Лебедев, Н.Б.Белова, М.В.Богданова, К.А.Шерманова va boshqalar, respublikamiz olimlaridan A.Abdusattarov, I.X.Salimov, A.I.Amirov, M.Eshnazarova, X.B.Yunusov, Z.J.Shapulatovalar virusli diareya kasalligi bo'yicha muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ammo, qoramollar virusli diareya kasalligining tarqalishi, diagnostikasi, maxsus profilaktikasi bo'yicha mono- va assotsiatsiyalashgan vaksinalarni qo'llashning profilaktik samaradorligini aniqlash, kasallikning maxsus profilaktikasi va davolash usullarini yaratish borasida tadqiqot ishlari olib borilmagan, uni sinash hamda amaliyotga tadbir etish kabi muhim ilmiy-amaliy jihatlar to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari 2022-2025 yillarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining ilmiy ish rejasi, "O'zbekistonda tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" MEGA loyihasi doirasida, Farg'ona, Andijon, Samarqand va Jizzax viloyatlari qoramolchilik xo'jalik (Shartnomalari №1. 22.01.2022y, №2. 10.03.2023y, №3. 15.04.2023y) shartnomalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Respublikaning ayrim qoramolchilik xo'jaliklari sharoitida virusli diareyaning tarqalishini o'rganish, diagnostikasi, maxsus profilaktikasi va davolash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Respublikaning Farg'ona, Andijon, Samarqand va Jizzax viloyatlari chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarning virusli diareya

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturi tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-yanvardagi "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-sonli qarori.

kasalligini tarqalishi va yoshga oid dinamikasini, klinik belgilari, kechishi, patologoanatomik o'zgarishlarini aniqlash;

qoramollar virusli diareya kasalligini serologik diagnostikasida immunofermentli tahlil (IFT), bilvosita gemagglyutinatsiya reaksiyasi (BGAR), ekspress test usullarini qo'llash;

qoramollar virusli diareya kasalligini maxsus profilaktikasi va davolash usullarini ishlab chiqish;

"Enteroviglob-1" veterinariya biopreparatini virusli diareya bilan kasallangan buzoqlar gematologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kasal qoramollar, klinik sog'lom sigirlar va buzoqlar, emlangan bo'g'oz sigirlar, ulardan olingan yangi tug'ilgan buzoqlar, virusli diareyaga qarshi mono va assotsiatsiyalangan vaksinalar, transovarial immunoglobulinlar asosidagi veterinariya biopreparati, ekspress test to'plamlari, BGAR, IFT uchun diagnostik test tizimlari, tuxum qo'yadigan tovuqlar, tovuq tuxumlari, laboratoriya hayvonlari (oq sichqonlar, oq kalamushlar) tanlangan.

Tadqiqotning predmeti qoramollardan olingan qon va qon zardobi namunalari, virusli diareyaga qarshi antitelolarni aniqlash uchun test tizimlari, tajriba va nazorat guruhlaridagi hayvonlarning qon namunalari va qon zardobi, tovuq transovarial immunoglobulinlariga asoslangan preparat, buzoqlar gematologik ko'rsatkichlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda umum qabul qilingan epizootologik, klinik, patologoanatomik, gistologik, bakteriologik, serologik, toksikologik, gematologik, biokimyoviy va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg'ona, Andijon, Samarqand va Jizzax viloyatlarining qoramolchilik xo'jaliklarida virusli diareyaning 69,8 foizgacha tarqalishi va yoshga oid dinamikasida 15 kunlikgacha bo'lgan buzoqlarda 80,1 foizni, sigirlarda 82,5 foizni tashkil etishi aniqlangan;

qoramollar virusli diareyasining katta yoshdagi hayvonlarda subklinik shaklda, 6 oylikgacha bo'lgan buzoqlarda klinik - enteral, respirator shaklda, shilliq pardalar va tuyoqlarining shikastlanishi belgilari va ichakda yaralar va o'pkada kataral yallig'lanishlar kabi patologianatomik o'zgarishlar bilan kechishi tadqiqotlarda aniqlangan;

qoramollarda virusli diareyani ekspress test, immunofermentli tahlil (IFT), bilvosita gemagglyutinatsiya reaksiyasi (BGAR) usullarini qo'llashga asoslangan diagnostika usuli ishlab chiqilgan;

birinchi marta qoramollar virusli diareya kasalligini maxsus profilaktikasida Bovilis BVD, Enterovak-5 va Tetravir-4 vaksinalarini qiyosiy profilaktik samaradorligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

buzoqlarda virusli diareya qo'zg'atuvchisi keng tarqalganligi va ularning yangi tug'ilgan buzoqlar o'sish davrida zararlanishiga hamda avj olib, kasallikning keng tarqalishiga olib kelishi aniqlangan;

qoramollar virusli diareyasining maxsus profilaktikasida "Bovilis BVD" qoramollar virusli diareyasiga qarshi faolsizlantirilgan vaksina va "Tetravir-4"

infeksion rinotraxeit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsitial infeksiyaga qarshi tirik kultural vaksina bilan emlaganda ikkalasida ham 86,7% profilaktik samaradorlikka erishilgan;

“Enterovak-5” virusli diareya, rota-, koronavirusli infeksiya hamda buzoqlar kolibakteriozi va proteoziga qarshi assotsiatsiyalashtirilgan faolsizlantirilgan vaksina bilan emlaganda - 93,4% profilaktik samaradorlikka erishilgan;

buzoqlarning virusli diareya kasalligini maxsus terapiyasi va profilaktikasi uchun ilk bor nosog'lom xo'jaliklarda tovuqlarning transovarial immunoglobulinlari asosida “Enteroaviglob-1” veterinariya biopreparatini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma, tavsiyanoma ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan;

“Enteroaviglob-1” biopreparatini virusli diareya bilan kasallangan buzoqlar qonining morfofiokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlangan;

buzoqlarning virusli diareya antigenlari bilan eritrotsitar diagnostika to'plami ishlab chiqilgan va ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar joriy etilgan;

qoramollar virusli diareyasining diagnostikasida ekspres test, IFT, bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyasi usullari qo'llanilib samarali natijalar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, epizootologik tadqiqotlar, oldini olish chora-tadbirlarini o'rganishda zamonaviy vosita va uslublardan foydalanilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ilmiy tahlil qilish shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqotlar natijalarini dalolatnomalarga asoslanganligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'tkazilgan laboratoriya yig'ilishlari va seminarlarda, taqdim etilgan hisobotlarda dissertatsiya bo'yicha olingan tadqiqot natijalarining mutaxassislar tomonidan yuqori baholanganligi hamda tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro konferensiyalarda ma'ruza qilinib, olimlar tomonidan maqullanganligi ularning ishonchligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, respublikamiz ayrim viloyatlari xo'jaliklarida katta iqtisodiy zarar keltiruvchi qoramollar virusli diareyasining tarqalishi, yoshga bog'liq dinamikasi aniqlanganligi, klinik belgilari, kechishi o'rganilganligi, diagnostikasi va maxsus profilaktikasi hamda terapiyasi takomillashtirilganligi, “Bovilis BVD”, “Tetravir-4” va “Enterovak-5” vaksinalarining qo'llash usullari va profilaktik samaradorligi aniqlanganligi, IFT, ekspres test tahlillari, BGAR asosida virusli diareya kasalligiga tezkor aniq serologik diagnoz qo'yish uslubi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan diagnostika usullarini takomillashtirish, dastlabki tezkor test, IFT, BGAR usullarini qo'llash qoramollar virusli diareya kasalligini o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Maxsus profilaktikaning yangi usullari faolsizlantirilgan “Bovilis BVD” mono, assotsiatsiyalangan, faolsizlantirilgan “Enterovak - 5”, quruq tirik “Tetravir-4” vaksinalaridan foydalangan holda ishlab chiqilganligi, qoramollarda mustahkam immunitetni paydo qilib, virusli diareyaning oldini olishni va unga qarshi kurash choralari ishlab chiqish imkonini berganligi,

tovuqlarning transovarial immunoglobulinlari asosidagi "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini buzoqlar virusli diareyasining oldini olish va davolashda samarali natijalar olinishi tadqiqotlarning amaliy jihatini tavsiflaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoramollar virusli diareya kasalligining diagnostikasi va maxsus profilaktik tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

Qoramollar virusli diareyasini profilaktikasi uchun faolsizlantirilgan "Bovilis BVD" mono, assotsiatsiyalangan, faolsizlantirilgan "Enterovak – 5", quruq tirik "Tetravir-4" vaksinalarini qiyosiy samaradorligi aniqlangan va Andijon viloyatining "Navoiy naslli chorva mollari" fermer xo'jaligiga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 9 oktabrdagi 02/23-719-son ma'lumotnomasi). Natijada buzoqlar virusli diareyasining maxsus oldini olishda "Bovilis BVD" mono, "Tetravir-4" vaksinalari 86,7% va faolsizlantirilgan "Enterovak – 5" vaksinasini qo'llab 93,4% samaradorlikka erishilgan;

"Yirik shoxli hayvonlar virusli diareyasini diagnostikasi uchun bilvosita gemaglyutinatsiya va bilvosita gemaglyutinatsiyani to'xtatish reaksiyalarini qo'yish uchun eritrositar antigenlar va zardoblar to'plami"ni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 9 oktabrdagi 02/23-719-son ma'lumotnomasi). Natijada virusli diareyaga aniq diagnoz qo'yish orqali o'z vaqtida davolash va profilaktika qilishga erishilgan;

Buzoqlarning virusli diareyasini oldini olish va davolashda "Enteroaviglob-1" preparatini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va veterinariya amaliyotiga keng joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 9 oktabrdagi 02/23-719-son ma'lumotnomasi). Natijada buzoqlar virusli diareyasining oldini olishda samaradorlik 88,5%, davolash samaradorligi 95,5 % bo'lib, iqtisodiy samaradorligi har bir sarflangan 1 so'm xarajatlar hisobiga 10,7 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari jami 8 ta, 5 ta xalqaro, 3 ta Respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, jumladan 2 ta xorijiy, 4 ta mahalliy jurnallarda, 3 ta respublika va 5 ta xalqaro konferensiya materiallar to'plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 3 ta tavsiyanoma chop etilgan. 1 ta eritrotsitar diagnostikumlar uchun texnik shartlar va 1 ta patent, 2 ta foydali modelga patent hamda 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, olingan natijalar tahlili, xulosa, amaliyot uchun tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotlar usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobat siyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "Adabiyot ma'lumotlarining tahlili" deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi "Qoramollar virusli diareya kasalligi" deb nomlangan qismida, qoramollar virusli diareya (VD) kasallik qo'zg'atuvchisi dastlab 1946 yilda Amerika Qo'shma shtatlarida aniqlanganligi, qoramollarning ovqat hazm qilish traktining eroziyasi va yaralarni hosil bo'lishi, ushbu kasallikning butun dunyo mamalaktlari chorvachilik xo'jaliklarida tarqatilishi 50 foizdan 90 foizgacha bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi davrga kelib ushbu kasallik sanoati rivojlangan dunyoning barcha mamlakatlaridagi chorvachilik xo'jaliklarida uchrganligi qayd etilgan bo'lib jumladan, Germaniya, Angliya, Gollandiya, Moldova, Ukraina, Rossiya, Belarusiya kabi mamlakatlarning hududlarda ko'p uchrashi olimlarning epizootik tadqiqotlarida o'rganilgan.

Kasallik manbai virusli diareya kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan 2 kunlikdan 2 yilgacha bo'lgan qoramollar hisoblanib, diareya kasalligini qo'zg'atuvchisi Pestiviruslar avlodiga mansub, Flaviviridae oilasiga kiruvchi RNK saqllovchi virus, uning diametri 40-60 nm, oval shaklda, kapsid va lipid qobiq bilan o'ralgan. Virusli diareya kasalligining qo'zg'atuvchisini ikkita turi VD-1 va VD-2 turi va 13 ta subgenotiplar mavjudligi bayon etilgan.

Ikkinchi qismi "Qoramollar virusli diareya kasalligini diagnostikasi" deb nomlanib, qoramollar virusli diareya kasalligiga tashxis qo'yish ko'p murakkab jarayon bo'lib unga dastlab, klinik, patologoanatomik, epizootologik ma'lumotlar, olinadi biroq eng yakuniy ishonchli diagnostik usul bu IFT va PZR, BGAR reaksiyalariga asoslangan holda diagnoz qo'yiladi. Chunki bu kasallikning yashirin holatlarda kechishi surunkali shakli yoki ko'p hollarda ikkilamchi infeksiya bo'lib kelishi kasallikka diagnoz qo'yishda qiyinchilik tug'diradi. Shunga ko'ra olimlar laboratoriya sharoitida virusni ajratish va boshqa kasallik qo'zg'atuvchilaridan farqlash hamda biologik sinov qilish kabi kulturani o'stirish laboratoriya tekshirishlarining asosiy diagnostik afzalliklari haqida aytib o'tilgan.

Uchinchi qismi "Virusli diareya kasalligini serologik diagnostikasi" deb nomlanib, qoramollar virusli diareya kasalligiga diagnoz qo'yishda dastlab klinik, patologoanatomik, ko'rsatkichlarga va gistokimyoviy, immunoxromatografik, BGAR-bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyasi kabi usullar orqali tashxis qo'yilganligi biroq, hozirgi kunda eng ishonchli hamda ko'p qo'llanilayotgan usuli

bu IFT immunfonni aniqlash PZR polimeraza zanjirli reaksiyasi ekanligi bo'yicha dunyo olimlari tomonidan adabiyot manbalarida ma'lumot berilgan.

To'rtinchi qismi "Qoramollar virusli diareya kasalligini profilaktikasi va davolash choralari" kasallikka erta tashxis qo'yish va unga qarshi profilaktik chora tadbirlar eng muhim omil hisoblandi. Ushbu hududlarda so'nggi bir necha yillar ichida emlashdan keyin qoramollarda virusli diareyaga qarshi antitelolarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar soni deyarli 4 baravarga oshganligi ya'ni (5833 ta tadqiqotlar), 2020-yilda bu ko'rsatkich 19209 boshga yetganligi aniqlangan. Shu tariqa tadqiqotchi olimlar 2020-yilda jami 50 ming bosh qoramollarni tekshirish natijasida hayvonlarning 87,4 foizida emlashdan keyin kasallikka qarshi antitelolar mavjudligini aniqlaganligi, kasallikni davolash va profilaktikasida transovarial immunoglobulinlarni ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "Tadqiqot materiallari va uslublari" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, ob'ekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, kasal qoramollar, klinik sog'lom sigirlar va buzoqlar, emlangan bo'g'oz sigirlar, ulardan olingan yangi tug'ilgan buzoqlar, virusli diareyaga qarshi mono va assotsiatsiyalangan vaksinalar, transovarial immunoglobulinlar asosidagi veterinariya biopreparati, ekspress test to'plamlari, BGAR, IFTni qo'yish uchun diagnostik test tizimlari, tuxum qo'yadigan tovuqlar, tovuq tuxumlari, laboratoriya hayvonlari (oq sichqonlar, oq kalamushlar).

Ilmiy tadqiqotlar 2022-2025 - yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Mega loyiha doirasida "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya" kafedra laboratoriyasi, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Hududiy diagnostika laboratoriyasi, Farg'ona va Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari hamda Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Andijon viloyatlari qoramolchilik fermer xo'jaliklarida bajarildi.

Qoramollar virusli diareya kasalligining epizootologik holatini tahlili uchun Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Andijon viloyatlari kesmida jami 962 bosh qoramollarda virusli diareyaning tarqalish darajasi, yoshga bog'liq holda uchrashi o'rganildi. Samarqand viloyati fermer xo'jaliklaridan 97 bosh qoramollarning qon zardobi virusli diareyaga immunoferment tahlili (IFT) usulida tekshirildi. Rossiya davlati tomonidan OA "Vektor-Best" ishlab chiqarilgan "Набор реагентов для иммуноферментного выявления антител к возбудителю вирусной диареи крупного рогатого скота (ВД КРС) в сыворотке (плазме) крови животных (Вирусная диарея антитела-ИФА-Бест-Бет) test to'plami ishlatildi.

Jizzax, Andijon, Farg'ona, Samarqand viloyatlari chorvachilik xo'jaliklaridagi 865 bosh qoramollarning qon zardobini virusli diareyaga bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyasi (BGAR) usulida tekshirildi. BGAR usulida tekshirish uchun TU BY 300002681.204-2022 (partiya № 3, 2023 yil sentabr) bo'yicha ishlab chiqarilgan "Yirik shoxli hayvonlar virusli diareyasini diagnostikasi uchun eritrositar antigenlar va zardoblar to'plami" ishlatildi. Serologik usullarda har xil klinik holatdagi, vaksina bilan emlangan

qoramollarning qon zardobini, virusli diareyaga qarshi antitelolarni aniqlash uchun tekshirildi.

Qoramollar virusli diareya kasalligini klinik belgilari va kechishini o'rganish jarayonida Jizzax, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining beshta fermer xo'jaliklaridan 70 bosh qoramollar qon zardobi virusli diareya kasalligiga tezkor-sinov usulida tekshirildi. Bu maqsadda tezkor sinov - kasseta, immunoxromatografik tahlil uchun to'plamdan foydalanildi. Bu to'plam yuqori diagnostik aniqligi, 5-10 daqiqada natija olish, tezkorlik va foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi.

Qoramollar virusli diareyasining maxsus profilaktikasini samarali vositalari va usullarini topish, turli vaksinalar samaradorligini o'rganish, buzoqlar virusli diareya kasalligini maxsus oldini olish, davolash vositasini ishlab chiqish uchun:

"Intervet International B.V., Niderlandlar ishlab chiqargan "Bovilis BVD" qoramollar virusli diareyasiga qarshi faolsizlantirilgan vakcina;

"BelVitunifarm" ochiq aksionerlik jamiyatiga qarashli biokombinatda ishlab chiqarilgan "Enterovak-5" virusli diareya, rota-, koronavirusli infeksiya hamda buzoqlar kolibakteriozi va proteoziga qarshi assotsiatsiyalashtirilgan faolsizlantirilgan vakcina;

"BelVitunifarm" ochiq aksionerlik jamiyatiga qarashli biokombinatda ishlab chiqarilgan "Tetravir-4" infeksiyon rinotraxeit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsitial infeksiyaga qarshi tirik kultural vaksinalardan foydalanildi. Vaksinalarning profilaktik samaradorligi 45 bosh bo'g'oz sigirlarda o'rganildi.

Turli vaqtlarda "Enterovak-5" va "Tetravir-4" vaksinalarini alohida yuborish yo'li bilan tovuqlarni giperimmunlash uchun tajribada 50 bosh tuxum yo'nalishidagi tovuqlar ishlatildi. Shundan 25 bosh tovuqlarga vakcina o'miga fiziologik eritma ishlatildi.

Tovuqlarning transovarial immunoglobulinlari asosida tayyorlangan "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini zaharliligini o'rganish uchun har xil jinsli og'irligi 18-21 g li 30 ta oq sichqon va og'irligi 190-200 g bo'lgan 42 ta oq kalamushlardan foydalanildi. Sterillikni aniqlash uchun ulardan steril go'sht peptonli bulyon (GPB) DSt 20730-75, go'sht peptonli agar (GPA), Saburo agari DSt 29112-91, Kitt-Tarotsii oziq muhitlari, zararsizligini aniqlash uchun har bir seriyasiga 6 tadan oq sichqon, faolligini aniqlash uchun bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyasiga eritrositar antigenlar va zardoblar to'plami ishlatildi.

Buzoqlar virusli diareya kasalligiga qarshi tovuqlarning transovarial immunoglobulinlari asosida tayyorlangan "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini optimal davolash dozasini aniqlash uchun tajriba 20 bosh virusli diareya bilan kasallangan buzoqlarda o'tkazildi. Profilaktik dozasi 20 bosh klinik sog'lom buzoqlarda aniqlandi.


"Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini virusli diareya bilan kasallangan buzoqlar qonining gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish uchun tajriba 20 bosh kasal buzoqlarda o'tkazildi.

Dissertatsiyaning "Respublikaning ayrim viloyatlari chorvachilik xo'jaliklarida virusli diareya kasalligini tarqalishi, yoshga bog'liq holda uchrashi

va patologoanatomik tekshirish natijalari” deb nomlangan uchinchi bobi to’rt qismdan iborat bo’lib, birinchi qismi “Respublikaning ayrim viloyatlarini chorvachilik xo’jaliklarida virusli diareya kasalligini tarqalishi” deb nomlanib, Respublikaning Samarqand, Jizzax, Farg’ona, Andijon viloyatlari qoramolchilik fermer xo’jaliklarida qoramollar virusli diareya kasalligini tarqalishini o’rganish maqsadida qoramollardan olingan qon zardoblari IFT va BGAR da teshirildi.

Samarqand viloyatining beshta tumaniga qarashli 6 ta fermer xo’jaliklaridagi 97 bosh qoramollardan olingan qon zardoblarini immunofermentli tahlil usulida tekshirilganda 61,9 foizdan 88,2 foizgacha ijobiy natija olinib, ularda virusli diareyaning tarqalish darajasi aniqlandi. O’rtacha qoramollarning zararlanishi 74,2 foizni tashkil etdi.

Jizzax, Andijon, Farg’ona va Samarqand viloyatlariga qarashli 13 ta har xil fermer xo’jaliklarida jami 865 bosh turli yoshdagi qoramollardan olingan qon zardoblarini tekshirganimizda 604 boshida ijobiy natija olinib diareya virusiga qarshi antitelolar mavjudligi aniqlandi. Bu esa 69,8 foizni tashkil etdi. Hayvonlarning zararlanish darajasi 45,9 foizdan 87,5 foizgacha tashkil etdi. Diareya virusiga qarshi antitelolar titri 3,7-5,0 log₂ ekanligini aniqlandi.




1-rasm. Respublikaning ayrim viloyatlari chorvachilik xo’jaliklaridagi qoramollarning qon zardobini virusli diareyaga BGAR usulida tekshirish natijalari.

IFT va BGAR usullarida tekshirganda qoramollar qon zardobida virusli diareya kasalligi qo’zg’atuvchisiga qarshi antitelolarni mavjudligi diareya virusi bilan ularning zararlanganligini va tabiatda keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Bunda qoramollarni tabiiy rezistentligini oshirish, to’g’ri ratsion asosida boqish, zoogigienik talablar darajasida saqlash, kasal va klinik sog’lom qoramollarni ajratish hamda kasallikka qarshi kurash choralarini qo’llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Tekshirilgan qoramollar diareya virusi bilan zararlangan va bu virus ushbu xo’jaliklarda mavjud bo’lib, kasallikning maxsus oldini olish chora-

tadbirlari o'tkazilmasa qulay sharoitlar paydo bo'lganda qoramollar orasida yalpi kasallanish holatlari kuzatilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Respublikaning ayrim viloyatlarini chorvachilik xo'jaliklarida virusli diareya kasalligini yoshga bog'liq holda uchrashi" deb nomlangan ushbu qismida Jizzax, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining 13 ta har xil fermer xo'jaliklarida qoramollarda virusli diareya kasalligini mavjudligi va yoshga bog'liq holda tarqalishi bo'yicha 676 bosh buzoq va 189 bosh ona sigir, jami 865 bosh qoramollarning qon zardobi BGARda serologik tekshiruvdan o'tkazildi.



2-rasm. Respublikamiz ayrim viloyatlari chorvachilik xo'jaliklarida virusli diareyani turli yoshdagi qoramollarning qon zardobini BGARda o'rganish natijalari.

Serologik tekshirilgan 189 bosh sigirlardan 156 tasi – 82,5% diareya virusiga ijobiy natija berdi, antitelolar titri $4,6 \pm 0,09 \log_2$ ni tashkil etdi. Tekshirilgan buzoqlar ichida eng ko'p ijobiy reaksiya berganlari yangi tug'ilgandan 15 kunlikgacha bo'lgan buzoqlar 111 tadan 89 tasi (80,1%) va 16-30 kunlik buzoqlar bo'lib, 108 tadan 82 tasi (75,9%) ijobiy natija berdi. Boshqa yosh guruhlarida ijobiy natija 55,5 foizdan (181 kunlikdan 1 - yoshgacha) 64,6% (31-90 kunlik) gachani tashkil etdi. Diareya virusiga qarshi antitelolar titri $4,1 \log_2$ dan $5,3 \log_2$ gacha bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich $4,9 \log_2$ ekanligini aniqladik. Bunda diareya virusiga qarshi antitelo titrlari darajasini tahlil qilganda eng yuqori titrlar – $5,3 \log_2$ 16-30 kunlik va 181 kunlikdan bir yoshgacha bo'lgan buzoqlarda, nisbatan pastroq titrlar - $5,0 \log_2$ 1-15 va 91-180 kunlik buzoqlarda, hamda – $4,1 \log_2$ 31-90 kunlik buzoqlarda hosil bo'lgani aniqlandi. Bu turli yoshdagi hayvonlarda diareya virusi mavjudligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "Qoramollar virusli diareya kasalligini klinik belgilari va kechishi" deb nomlangan qismida Respublikamizning to'rt viloyatining 5 ta fermer xo'jaliklaridan jami kasallikka gumon qilingan va kasal 70 bosh har xil yoshdagi

qoramollardan olingan qon namunalari tezkor sinov - immunoxromatografik tahlil usulida tekshirildi. Jami tekshirilgan 70 ta namunadan 28 tasida (40%) diareya virusi aniqlandi. Tekshirilgan hayvonlarning 20 - 56,25 foizida diareya virusi aniqlandi.

“Virusli diareya kasalligidan o‘lgan buzoqlar organlaridagi patologoanatomik o‘zgarishlar” deb nomlangan to‘rtinchi qismda patologoanatomik o‘zgarishlarni klinik belgilari, kechishiga, virusning joylashishiga bog‘liq ravishda turlicha namoyon bo‘lgani aniqlangan. Katta yoshdagi buzoqlarda kasallik ko‘proq subklinik shaklda kechdi. 15 kunlikdan 6 oylikgacha bo‘lgan buzoqlarda kasallikni ko‘p uchrashi aniqlandi. O‘lim ko‘proq tug‘ilgandan keyin juda yosh buzoqlarda kuzatildi. Qoramollar virusli diareya kasalligida patologoanatomik o‘zgarishlar klinik belgilari va kechishiga, virusning joylashishiga bog‘liq ravishda asosiy o‘zgarishlar ovqat hazm qilish va nafas olish organlarida kataral fibrinli va gemorragik yallig‘lanishlar bilan kechadi. Tomirlar giperemiyasi va qon quyilishlar ham xarakterlidir.

Virusli diareyada patologik materialni gistologik tekshirishlar natijasida buyrak kanalchalari epiteliysining deskvوماتsiyasi va nekrozi, tomirlarining giperimiyasi aniqlandi. Endotelial va podotsit yadrolarining shishishi kuzatildi. Buyrakdagi kapillyar tomirlar to‘plami - glomerula sezilarli darajada kengayganligi ko‘rindi.

Ingichka ichakning hujayra tuzilishi, to‘shilliq qavatining chuqur qismlarigacha, butunlay yo‘qoldi. So‘rg‘ichlarining biriktiruvchi to‘qima hujayralari va epitelial hujayralar o‘rniga “soyalar” paydo bo‘ldi. Ingichka ichak shilliq qavat so‘rg‘ichlar epiteliy hujayralarining nekrozi aniqlandi.

Taloqning qizil pulpasi og‘ir gemosiderozning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ko‘p sonli siderofaglar qizil pulpa bo‘ylab tarqoq taqsimlangan va to‘liq va faol eritrofagiyaning namoyon qiladi. Qizil pulpaning gemosiderozi va makrofaglarda gemosiderin pigmenti qayd etildi. Endoteliyning yadro va sitoplazmasini shishishi yaqqol ko‘rindi. Ko‘plab retikulyar hujayralar yadrolarining yorug‘roq ko‘rinishi qayd etildi.

Dissertatsiyaning “Qoramollar virusli diareya kasalligini maxsus profilaktikasi va davolash usullarini ishlab chiqish” deb nomlangan to‘rtinchi bobi olti qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Virusli diareyani maxsus profilaktikasida vaksinalarni qo‘llash samaradorligi” deb nomlanib, Andijon viloyati “Navoiy naslli chorva mollari” fermer xo‘jaligida vaksinalarining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tajriba uchun 60 bosh bo‘g‘oz sigirlarni o‘xshash juftliklar tamoyili asosida tanlab olindi. Ularni har birida 15 tadan 4 ta guruhga bo‘lindi: 3 ta tajriba va bitta nazorat.

Birinchi tajriba guruhini “Bovilis BVD” qoramollar virusli diareyasiga qarshi faolsizlantirilgan vaksina bilan ikki marta 28 kun oraliqda 2 ml dozada bo‘yinning yuqori uchdan bir qismiga mushaklar orasiga yuborib emlandi.

Ikkinchi tajriba guruhini buzoqlarning virusli diareya, rota-, koronavirusli infeksiyasi hamda buzoqlar kolibakteriozi va proteoziga qarshi assotsiatsiyalashtirilgan faolsizlantirilgan “Enterovak-5” vaksinasini bilan ikki marta

5 ml dozada mushak orasiga yuborib emladik. Birinchi marta sigirlar tug'ishidan 9 hafta oldin, ikkinchi marta tug'ishiga uch hafta qolganida.


Uchinchi tajriba guruhini "Tetravir-4" infeksiyon rinoatraxit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsital infeksiyaga qarshi tirik kultural vaktsinasi bilan tug'ishidan ikki oy avval, ikki marta 21 kun oraliq bilan 3 ml dozada bo'yinning yuqori uchdan bir qismiga mushak orasiga yuborib emlandi.

To'rtinchi guruhdagi sigirlar emlanmadi.

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlardan emlashdan oldin va emlagandan keyin 21, 45, 65- kunlari qon olindi.

Birinchi va uchinchi guruhlarda profilaktik samaradorlik 86,7 foizni tashkil etdi. Ikkinchi guruhda profilaktik samaradorlik 93,4 foizni, to'rtinchi nazorat guruhida esa 20 foizni tashkil etdi.

Vaktsinalar bilan emlashdan oldin tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar qon zardobini tekshirganimizda diareya virusiga qarshi antitelolar titri $1,69 \pm 0,085 \log_2$ dan $2,52 \pm 0,78$ gacha edi.



3-rasm. Tajriba va nazorat guruhlaridagi sigirlarning diareya virusiga qarshi o'rtacha antitelolar titrlari darajasi

Emlagandan keyin birinchi guruh "Bovilis BVD" vaktsinasi bilan emlangan sigirlarda 45-, 65- kunlarga kelib titr mos ravishda $6,72 \pm 0,09$ va $8,22 \pm 1,13 \log_2$ ga, ikkinchi tajriba guruhida "Enterovak-5" vaktsinasi bilan emlanganlarida $6,70 \pm 0,06$ va $7,99 \pm 1,07 \log_2$ ga, uchinchi tajriba guruhida "Tetravir-4" vaktsinasi bilan emlanganlarida esa $6,82 \pm 0,08$ va $8,02 \pm 0,18 \log_2$ gacha ko'tarilgani aniqlandi.

Nazorat guruhida emlanmagan sigirlar qon zardobida diareya virusiga qarshi antitelolar titrida tajribaning oxirigacha deyarli katta farq bo'lmadi.

Ushbu bobdagi "Buzoqlar virusli diareya kasalligini maxsus oldini olish, davolash vositasini ishlab chiqish" deb nomlangan ikkinchi qismida o'xshash juftliklar tamoyili asosida 50 bosh katta yoshdagi tovuqlarni tanlab olindi va har birida 25 boshdan ikki guruhga ajratildi. Tajriba guruhidagi tovuqlarni "Enterovak

- 5" va "Tetravir-4" vaksinalari bilan sxema asosida giperimmunlandi. Nazorat guruhiga esa fiziologik eritma in'eksiya qilindi.

Tajriba guruhidagi tovuqlarni birinchi marta "Enterovak-5" vaksinasini bilan 2,0 ml dozada mushaklar orasiga yuborib emladik. Nazorat guruhidagi tovuqlarga esa 2,0 ml dozada mushaklar orasiga fiziologik eritma in'eksiya qildik. Ikkinchi marta 7 kundan keyin tajriba guruhidagi tovuqlarga "Tetravir-4" vaksinasini 2,0 ml dozada mushaklar orasiga in'eksiya qildik. Nazorat guruhidagi tovuqlarga esa 2,0 ml dozada mushaklar orasiga fiziologik eritma in'eksiya qildik. Uchinchi marta 7 kundan keyin tajriba guruhidagi tovuqlarni "Enterovak-5" vaksinasini bilan 2,0 ml dozada mushaklar orasiga in'eksiya qildik. To'rtinchi marta 7 kundan keyin "Tetravir-4" vaksinasini 2,0 ml dozada, beshinchi marta 7 kundan keyin "Enterovak-5" vaksinasini 2,0 ml dozada, oltinchi marta esa yana "Tetravir-4" vaksinasini 2,0 ml dozada in'eksiya qildik. Nazorat guruhidagi tovuqlarga yuborilgan vaksinani dozasi va yuborish joyiga huddi shu vaqt oraliq bilan fiziologik eritma in'eksiya qildik. Tajribamiz davomida ikkala guruhdagi tovuqlarning klinik holati tekshirib borildi va o'zgarishlar kuzatilmadi.


Oxirgi emlashdan o'n to'rt kun o'tgach, giperimmunlash oxirida tuxum ikki oy davomida yig'ildi. Yig'ilgan tuxumlar +3...+5°C haroratda saqlandi.

Ikki oydan keyin revaksinatsiya amalga oshirildi. Tajriba guruhidagi tovuqlar 7 kun oraliq bilan almashinib ikki marta "Enterovak-5" vaksinasini bilan, ikki marta "Tetravir-4" vaksinasini bilan 2,0 ml dozada in'eksiya qilindi. Nazorat guruhidagi tovuqlarga yana vaksina o'rni fiziologik eritma in'eksiya qilindi.

Tovuqlarni immunlashdan oldin, immunlashdan 14, 28 va 42 kundan keyin olingan tuxumlarini sarig'idan immunoglobulinlarini ajratib olib, BGAR usulida antitelolarning to'planishi dinamikasini o'rganildi.

Giperimmunlash natijasida tajriba guruhidagi tovuqlardan olingan tuxumlardan "Enteroaviglob-1" veterinariya preparati tayyorlandi.

"Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini zaharlilik va patomorfologik tekshirish natijalari" deb nomlangan uchinchi qismida "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini o'tkir va surunkali zaharlilikka tekshirilgan. O'tkir zaharlanishni o'rganish uchun har xil jinsli og'irligi 18-21 g li oq sichqonlardan o'xshash guruhlar tamoyili bo'yicha har birida oltitadan beshta - 4 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhi hamda og'irligi 190-200 g bo'lgan oq kalamushlardan har birida 6 tadan yettita - 6 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhi tuzildi. Guruhlarga mos ravishda oq sichqonlarga och qoldirib bir martadan "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini 500,0 mg/kg, 1000,0 mg/kg, 2000,0 mg/kg, 3000,0 mg/kg dozada maxsus ichi bo'sh igna (kichik zond) orqali to'g'ri og'iz orqali (peros) oshqozoniga yubordik. Nazorat guruhidagi oq sichqonlarga natriy xloridning izotonik eritmasi berildi. Tadqiqot davomida kuzatish davrida (14-kun) tajriba va nazorat guruhidagi oq sichqonlarda o'lim qayd etilmadi. Barcha sichqonlar tirik, faol, ishtahasi va suv ichishi yaxshi. Fiziologik me'yorlardan og'ishlar ko'rinmadi. Tajribamizda oq kalamushlarga 500,0 mg/kg, 1000,0 mg/kg, 2000,0 mg/kg, 3000,0 mg/kg, 4000,0 mg/kg, 5000,0 mg/kg dozalarida ichi bo'sh igna yordamida "Enteroaviglob-1" veterinariya biopreparatini oshqozoniga yubordik. Barcha guruhlardagi oq kalamushlarni 14 kun davomida klinik kuzatganda, ularda



patologik o'zgarishlar qayd etilmadi. "Enteroavglob-1" veterinariya biopreparatining surunkali zaharligini o'rganish uchun tadqiqotlar har ikki jinsdagi 190-200 g og'irlikdagi oq kalamushlarda o'tkazildi. Buning uchun har birida 6 tadan oq kalamushlardan iborat 4 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhi ajratildi.

